XALQ DEPUTATLARI OHANGARON SHAHAR KENGASHINING
Q A R O R I

2022 - yil 8 - oktabr VI-48-78-10-214-K/22 Ohangaron shahar hokimligi

O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi qonuniga muvofiq Ohangaron shahridagi mavjud geografik ob’ektlarni nomlash va qayta nomlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligining 2022-yil 3-avgustdagi Toshkent viloyati hokimi nomiga kiritgan 08-06633-sonli xati va xatga ilova qilingan O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi, Geografik ob’ektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish ekspert komissiyasining 2022-yil iyuldagi Bayonnomasi va “Geografik ob’ektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi haqida”gi ekspert xulosalarini shuningdek, “Geografik ob’ektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari” bo‘yicha viloyat komissiyasining 2022-yil 15-avgustdagi 1/SHX-4-5116-sonli yig‘ilish bayonnomalarini inobatga olib, O'zbekiston Respublikasining 2011-yil 12-oktabrdagi "Geografik obyektlarning nomlari to'g'risida"gi O'RQ-303-sonli qonuniga, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunning 6, 24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari Ohangaron shahar Kengashi,

Q A R O R Q I L A D I :

1. Geografik ob’ektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha shahar komissiyasi raisining o‘rinbosari N.Mirzayevaning hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligining 2022-yil 3-avgustdagi Toshkent viloyati hokimi nomiga kiritgan 08-06633-sonli xati va xatga ilova qilingan Geografik obyektlarga nom berish va

ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish ekspert komissiyasining 2022-yil iyuldagi yig‘ilish Bayonnomasi va “Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi haqida”gi ekspert xulosasiga asosan shahardagi “Birlik” M.F.Y da joylashgan 4 ta ko‘cha qonun hujjatlariga muvofiq deb topilgan nomlar ro‘yxati ilovaga asosan tasdiqlansin.

3. Shahar hokimining o‘rinbosari J.Baxodirov, shahar Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi boshlig‘i J.Yuldashovga 1 oy muddatda ushbu qaror ilovasiga muvofiq tasdiqlangan ro‘yxat asosida o‘zgargan ko‘chalarga ularning nomlari yozilgan metall ko‘rsatgich va belgilar, peshlavhalarni bosqichma-bosqich o‘rnatish, almashtirish, “Birlik” mahalla fuqarolar yig‘ini tizimidagi ish yurituv hujjatlarini mazkur qarorga muvofiqlashtirish va olib borilgan ishlar yuzasidan ma’lumotlarni belgilangan muddatda “Geografik ob’ektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari” bo‘yicha shahar komissiyasi (N.Mirzayeva)ga taqdim etish vazifalari yuklatilsin.

4. Shahar hokimligi, shahar IIB, shahar qurilish bo‘limi boshlig‘i, kadastr agentligining shahar bo‘limi boshlig‘i (A.Mamadaliyev), Davlat kadastrlar palatasi shahar filiali boshlig‘i (F.Qo‘shmatov) shahar Davlat soliq inspeksiyasi boshlig‘i (A.Mo‘minov), shahar statistika bo‘limi boshlig‘i (R.Saipov), shahar moliya bo‘limi boshlig‘i (J.Yuldashev), shahar davlat xizmatlari markazi rahbari (Sh.Shaxabxanov) va boshqa tegishli mutasaddi davlat organlari bilan birgalikda o‘zgargan ko‘cha nomlarini davlat ro’yxatidan o‘tkazish, ish yuritish hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish hamda boshqa tegishli tadbirlarni ko‘chalar o‘zgarishi munosabati bilan mazkur qarorga muvofiqlashtirish ishlarini amalga oshirsinlar.

5. Mazkur qaror “Ohangaron hayoti” gazetasida rasman e’lon qilinsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin, ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi. 6. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari shahar Kengashining Sanoat, transport, qurilish, kommunal soha va aholiga xizmat ko‘rsatish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (F.Akilov) hamda Geografik ob’ektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha shahar komissiyasi raisi o‘rinbosari (N.Mirzayeva) zimmasiga yuklatilsin.

Shahar hokimi **A. Eshankulov**

Xalq deputatlari Ohangaron shahar
Kengashining
2022 yil 8 oktabrdagi
VI-48-78-10-214-K/22-son qaroriga
1-ilova

Shahardagi “Birlik” M.F.Y da joylashgan 4 ta ko‘cha qonun hujjatlariga muvofiq deb topilgan nomlar ro‘yxati

№	Geografik obyektning turi	Joylashgan o‘rni	Geografik obyektning amaldagi nomi	Viloyat komissiyasi tomonidan berilgan taklif va Ekspert komissiyasining xulosasiga muvofiq berilgan nomlar
1.	Ko‘cha	Birlik M.F.Y	Sharq-1	Yangi O‘zbekiston
2.	Ko‘cha	Birlik M.F.Y	Sharq-2	Shahriston
3.	Ko‘cha	Birlik M.F.Y	Sharq-3	Fayzobod
4.	Ko‘cha	Birlik M.F.Y	Sharq-4	Ziyokor